

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FAN DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI.**

Termiz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi  
**Sultanova Tursunoy Ho'sinboy qizi**  
E-mail:sultanovaturunoy@gmail.com  
tel: 998 99 268 28 14

**Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li**  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi,  
Termiz (O'zbekiston)  
E-mail: qulmuminovorolboy@gmail.com  
Тел.: +998995265624

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarini yanada samarali tashkil etishda innovatsion metodlar bilan tanishish hamda ularni dars jarayonida qo'llash, o'quvchilariga metodlar orqali yangi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, ta'lim, texnologiya, metod, metodika, tafakkur, tabiiy fanlar

**Annotation:** In this article, it is described about the introduction of innovative methods for more effective organization of elementary science lessons and their application in the course of the lesson, the formation of new knowledge and skills for students through the methods.

**Keywords:** Innovation, education, technology, method, methodology, thinking, natural sciences

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi, dunyoqarshini kengaytiradi.

**Innovatsiya-** yangilik kiritish,yaratish. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (**innovatsion**) "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya- muayyan tizimning ichki tuzilishi. Ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi."Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Tabiiy (SCIENCE) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi,

tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

**Tabiiy fanlar** - insonni, uning sog'lig'ini, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barcha tirik va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fanlardir. Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko'rsatadigan ta'sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda har bir dars mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi. Pirovard natijada ta'lim samaradorligi ortadi. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllarida o'qitishni takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Darslarda "Kuzatish metodi", "SWOT-tahlili" metodi, " Venn diagrammasi", "Sinkveyn" metodi, "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "O'z o'rningni top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" metodlari, "Pinbord" usuli, "She'rni tikla" kabi mashqlaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

**Kuzatish metodi** – bu tirik organizmlarda boradigan jarayonlar va tabiat jismlarida sodir bo'ladigan hodisalarni o'quvchilarning maqsadga muvofiq holda idrok etishi hisoblanadi. Bu metodda o'quvchilarning kuzatishi bo'yicha to'plangan ma'lumotlari bilim manbai sanaladi. Kuzatish metodidan biologiyani o'qitishning barcha shakllarida foydalaniladi. Kuzatish metodidan dars jarayonida foydalanilganda o'quvchilar dars mazmuniga oid ko'rgazma vositalarini mustaqil kuzatadilar, natijada kuzatish ob'ektlaridagi o'ziga xos xususiyatlarni isbotlovchi dalillarga ega bo'ladilar. Bunday kuzatish qisqa muddatli bo'lib, ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'simliklar hayotidagi bahorgi, kuzgi mavsumiy o'zgarishlar, kelib ketuvchi qushlarning hayotini kuzatish, hashoratlarning rivojlanishini o'rganish kabi kuzatishlar uzoq muddatli davomli kuzatishlar sanaladi.

**“O'z o'rningni top” metodi.** Mavzu bo'yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi. **Maqsadi:** o'quvchilarda o'z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. **Vazifasi:** o'quvchilarni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil tarzda o'z fikrlarini isbotlashga o'rgatiladi.

**«Klaster» metodi.** Ushbu metod o'quvchilarga muammolar (mavzular) xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. «Klaster» metodi turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. «Klaster» metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil

etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

**«Aqliy hujum» metodi** muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirishdan iborat.

**“Arra” metodi.** Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o'quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib “mutaxassis”ga aylanadi. Ma'lum vaqtdan so'ng har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o'quvchilar o'zlashtirib oladilar. **Maqsadi:** o'quvchilarda muloqotlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish. **Vazifasi:** o'quvchilarni guruh bilan ishlash, guruh a'zolariga o'z fikrini tushuntirib, isbotlashga o'rgatish.

#### **“Sinkveyn” metodi**

Sinkveyn – fransuzcha -“cinquains”, inglizcha - “cinquain” so'zlaridan olingan bo'lib “5 qator” ma'nosini bildiradi. Sinkveyn - ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

#### **“Venn diagrammasi” metodi**

Venn diagrammasi ikki va uch jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Undan foydalanish bosqichlari:
- o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi;
- plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo'yiladi;
- har bir to'g'ri fikrga qo'yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;
- qo'yilgan topshiriq bo'yicha guruhlarining har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlari bir o'quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flomasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;
- kichik guruh ichidan biror o'quvchi sheriklarining ismi-shariflari to'g'risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;
- fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida to'g'ri va noto'g'ri javoblar aniqlanadi;
- to'g'ri javobga uch ball qo'yiladigan bo'lsa, har bir noto'g'ri fikr uchun guruhning umumiy balidan uch ball olib tashlanadi;
- eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib hisoblanib ular rag'batlantiriladi;
- bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto'g'rilari o'chirib chiqiladi va natijalar e'tiborga olingan holda o'quvchilarga taqablashtirilgan ball qo'yiladi.

Venn diagrammasi metodini barcha sinflarda bir-biriga bog'liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil.
3. G Sayfullaev, L Alimova, U Olloкова. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us. Bridge to science: research works, 206-208.
4. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
5. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.
6. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56.
7. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.
8. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
9. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
10. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.
11. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.